

LINGUOPOETIC AND PRAGMATIC FEATURES OF METAPHORS IN THE POETRY OF HALIMA KHUDOYBERDIYEVA

Aripova Khalida Abdulnasir kizi

Independent researcher at Fergana State University

Abstract

This article analyzes the linguopoetic and pragmatic features of metaphors in the poetry of Halima Khudoyberdiyeva. It scientifically substantiates the role of metaphor in the poet's texts as a means of creating semantic depth, enhancing aesthetic impact, and establishing communicative interaction with the reader. In particular, the functional aspects of color metaphors, nature-related metaphors, and metaphorical units expressing emotional and psychological states are examined.

Keywords: metaphor, linguopoetics, pragmatics, color metaphor, poetic text, semantics, aesthetic impact.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA METAFORALARNING LINGVOPOETIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida metaforalarning lingvopoetik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoiraning poetik matnlarida metaforaning semantik chuqurlik yaratish, estetik ta'sirni kuchaytirish hamda o'quvchi bilan kommunikativ aloqa o'rnatishdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi. Xususan, rang metaforalari, tabiat tasviriga oid metaforalar va hissiy-psixologik holatlarni ifodalovchi metaforik birliklarning funksional jihatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: metafora, lingvopoetika, pragmatika, rang metaforasi, poetik matn, semantika, estetik ta'sir.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МЕТАФОР В ПОЭЗИИ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ

Аннотация

В данной статье анализируются лингвопоэтические и прагматические особенности метафор в поэзии Халимы Худойбердиевой. Научно обосновывается роль метафоры в поэтических текстах поэтессы как средства создания семантической глубины, усиления эстетического воздействия, а также установления коммуникативной связи с читателем. В частности, раскрываются функциональные особенности цветowych метафор, метафор, связанных с изображением природы, а также метафорических единиц, выражающих эмоционально-психологические состояния.

Ключевые слова: метафора, лингвопоэтика, прагматика, цветовая метафора, поэтический текст, семантика, эстетическое воздействие.

O'zbek she'riyatida metafora badiiy tafakkurning asosiy vositalaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Halima Xudoyberdiyeva ijodida metaforalar poetik nutqning mazmuniy va estetik qirralarini ochishda yetakchi rol o'ynaydi. Shoira metaforik ifodalar orqali lirik qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va ijtimoiy kayfiyatini chuqur tasvirilaydi. Shu jihatdan uning she'riyati lingvopoetik tahlil uchun boy material hisoblanadi.

Siz topmishim, yo 'gotmishimmas,

Sor lochinim, ojiz qushimmas.

Siz dunyoda rost deb tutganim —

Tutolmagan yolg'on tushimmas.

Mazkur she'riy parcha metaforalarga boy bo'lib, unda shoiraning individual uslubi yaqqol namoyon bo'ladi. "Topmish" va "yo'qotmish" qarama-qarshi semantik birliklar hisoblanadi. Bu yerda "siz" obrazi: topilgan ne'mat, qadri baland inson sifatida tasvirlanadi; "yo'qotmish emas" deyish orqali uning barqarorligi ta'kidlanadi. Antonimik kontrast (topmoq – yo'qotmoq) orqali ma'no kuchaytirilgan, metaforik umumlashtirish yuzaga kelgan. "Sor lochinim, ojiz qushimmas". "Lochin" — kuch, erkinlik, yuksaklik ramzi; "Ojiz qush" — zaiflik, himoyasizlik belgisi. "Sor lochinim" metaforasi orqali: "siz" obrazi ideal, kuchli, suyanch nuqta sifatida berilib, ramziy-metaforik obraz yaratilgan, milliy poetik an'anaga xos qush obrazlari ishlatilgan. "Siz dunyoda rost deb tutganim". Bu misrada "rost" tushunchasi abstrakt haqiqatni bildiradi. "Tutmoq" fe'li bilan birikib, u: ishonch, e'tiqod, suyanish ma'nosini beradi, abstrakt tushuncha konkret harakat orqali ifodalangan. "Tutolmagan yolg'on tushimmas". "Yolg'on tush" metaforasi, amalga oshmagan orzu, sarob ma'nosini beradi. "Tush" orqali psixologik obraz yaratiladi, real va noreal qatlam qarama-qarshi qo'yiladi. Mazkur parcha o'quvchiga kuchli hissiy va estetik ta'sir ko'rsatadi. Shoir o'z his-tuyg'ularini bevosita emas, balki metaforalar orqali yetkazadi. Bu esa, nutqning estetikligini oshiradi, o'quvchini fikrlashga undaydi, yashirin ma'noni izlashga majbur qiladi.

Xudoyberdiyeva she'riyatida metafora leksik-semantik tizimning markaziy unsurlaridan biri bo'lib, so'zning lug'aviy ma'nosini kengaytirish va yangi konnotativ qatlamlarni yuzaga chiqarishda xizmat qiladi. Shoir metaforalardan:

lirik qahramonning ichki dunyosini ochish, poetik tasvirni kuchaytirish, estetik ta'sirni oshirish kabi maqsadlarda samarali foydalanadi. Metaforalar natijasida oddiy nominativ birliklar obrazli ifodaga aylanib, poetik matnda ko'p qatlamli semantik struktura yuzaga keladi. Bu esa lingvopoetik tahlilda metaforaning asosiy stilistik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Shoir ijdodida ranglar orqali yaratilgan metaforalar alohida o'rin tutadi. Rang komponentlari ko'pincha ramziy ma'noda qo'llanilib, muayyan hissiy-psixologik holatlarni ifodalaydi: qizil rang — sevgi, ehtiros va hayotiy kuch ramzi; yashil rang — yangilanish, umid va hayotiy davomiylik timsoli. Rang metaforalari poetik matnning emotsional intensivligini oshirib, o'quvchini tasviriy-estetik makonga olib kiradi. Ular shoiraning individual uslubini belgilovchi koloristik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ijodkor metaforalarni boshqa badiiy vositalar bilan uyg'un holda qo'llab, yaxlit poetik tizim hosil qiladi. Xususan, tabiat tasvirlari orqali inson ruhiyati yoritiladi, hijron va sog'inch motivlari metaforik talqinda beriladi, ijtimoiy-falsafiy mazmun obrazli ifoda orqali kuchaytiriladi.

Bu jarayonda metafora nafaqat tasviriy vosita, balki semantik integrator sifatida ham xizmat qiladi. Natijada she'riy matnning strukturaviy yaxlitligi va badiiy mukammalligi ta'minlanadi.

Bormi bu dunyoni ko'rolguvchi ko'z

Kuzatib qushlarning galalarini,

Sariq hasrat bo'lib yoyilarkan kuz,

Daraxt yo'qlaganda bolalarini!

Bu yerda "ko'z" oddiy sezgi organi emas, balki anglash, his etish, ruhiy idrok timsoli sifatida ishlatilgan, metonimik-metaforik kengayish yuz beradi. "Ko'z" – "ongli kuzatuvchi" ma'nosini oladi. Qushlar obrazi – erkinlik, ko'chish, vaqt o'tishini bildiradi. "Galalar" esa, birlik, ketish, ayriliq kayfiyatini kuchaytiradi.

Bu obrazlar kuz faslining ramziy ifodasiga xizmat qiladi. "Sariq hasrat bo'lib yoyilarkan kuz". Bu misra eng kuchli metaforalardan biridir: "sariq hasrat" – ruhiy holat. Sariq orqali so'nish, xazon, ayriliq semantikasi berilgan, sinestezik metafora (rang va hissiyot) qo'llangan, abstrakt tuyg'u konkret rang orqali ifodalangan. Daraxt "ona" timsolida berilgan. Bolalar — barg va mevalar. O'quvchi kuz manzarasi orqali insoniy dardni his qiladi.

Shoir ijdodida metaforalar kommunikativ-pragmatik vazifani ham bajaradi. Ular o'quvchida emotsional rezonans uyg'otadi, matnning ta'sirchanligini oshiradi, muallif niyatini bilvosita

yetkazadi. Metaforik ifodalar orqali yuzaga kelgan yashirin ma'no qatlamlari o'quvchini faol interpretatsiyaga undaydi. Bu esa poetik matnning pragmatik salohiyatini kengaytiradi.

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida metaforalar lingvopoetik tizimning muhim komponenti sifatida namoyon bo'lib, semantik chuqurlik, estetik ta'sir va pragmatik samaradorlikni ta'minlaydi. Rang metaforalari, tabiat obrazlari va hissiy kechinmalarni ifodalovchi metaforik birliklar shoironing individual uslubini belgilaydi. Shuningdek, metaforalar poetik matnning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirib, o'zbek she'riyatining zamonaviy rivojida muhim o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.
2. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент: Фан, 1962.
3. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. –Т.: Фан, 1988.
4. Григорьев В.П. Поэтика слова. –М., 1979.
5. Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. (Лексикология ва фразеология.Лексикография.) -Т., 2004.
6. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.
7. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 1994.
8. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.– Самарқанд: СамДУ, 2006.
9. Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. –М., 2007.
10. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Т.: Ўқитувчи, 1995.
11. Маматов А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т., 1991.
12. Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Т.: Фан, 2000.
13. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Мумтоз сўз, 2010.
14. Муҳиддинов М., Каримов С. Ғафур Ғулумнинг поэтик маҳорати.– Самарқанд: СамДУ, 2003.
14. Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili (Morfologiya). – Qarshi: Nasaf, 2005.
15. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. -Т.: XXI аср авлоди, 2001.
16. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент, 1975.
17. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари.– Тошкент: Фан, 1977.
18. Қўнғиров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. –Т: Ўқитувчи, 1992.
19. Қодиров П. Тил ва эл. – Тошкент: Ғафур Ғулум, 2005.
20. Раҳимжонов Н., Ҳамидова М. Ҳалима Худойбердиева лирикаси. –Т.,
21. Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент, 1981.
22. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари.– Т.: Фан, 1996.
23. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор , 2006.
24. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Т.: Fan va texnologiya, 2010.